

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlar.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova Sohijjamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda solliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	192
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	304
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	310
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollari takomillashtirish	315
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	320
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi	324
Xolbekova Feruza Rasulovna	



Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....	329
Hasanova Nigora Hasan qizi	
Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....	334
Юлдашев Жамшид Аббарович	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish	340
S. A. Karabayev	
Axborot telekommunikatsiya tarmog'i korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligi	334
Temirov Anvarxon Abdulazizxonovich	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	347
G.SH.Qo'ldosheva ¹ , A.J.Toshboyev ²	
Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash	351
Haydarova Shoxista	
Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari	357
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish	362
Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna	
Spin korxonalar - texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida	367
O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich	
Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar	371
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili.....	375
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	



MAHALLA INSTITUTINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL TAHLILI



Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li

TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasida dosenti,
PhD;

TDIU, Institusional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi katta ilmiy xodimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zini o'zi boshqarish institutlari faoliyatini reglamentlovchi me'yoriy-huquqiy asoslar tahlil qilingan. Ushbu boradagi normativlardagi mavjud nomuvofiqliklar tadqiq etilgan va ularni tartibga solish, o'zaro muvofiqlashtirish hamda mahalla instituti faoliyatini institusional jihatdan rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Institusional bo'shliq, institusional nomuvofiqlik, mahalla instituti, o'zini-o'zi boshqarish, normativ, institusional tahlil.

Abstract: This article analyzes the regulatory frameworks that regulate the activities of self-governing institutions. The existing inconsistencies in the regulations in this regard have been researched and scientifically based suggestions and recommendations have been developed regarding their regulation, mutual coordination and institutional development of the activities of the "mahalla" institute.

Key words: Institutional gap, institutional mismatch, mahalla institution, self-governing, normative, institutional analysis.

Аннотация: В данной статье анализируется нормативно-правовая база, регулирующая деятельность органов самоуправления. Исследованы имеющиеся несоответствия в нормативных актах в этом отношении и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их регулированию, взаимной координации и институциональному развитию деятельности института соседства.

Ключевые слова: Институциональный разрыв, институциональное несоответствие, Институт махалли, самоуправление, нормативы, институциональный анализ.

KIRISH

Mahalla instituti xalq va hukumat orasidagi ko'prik vazifasini o'tuvchi vatandoshlik jamiyatning eng muhim instituti hisoblanadi. Aholining muhtoj qatlamini aniqlash, ularni ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikning quyi chegarasidan chiqarish hamda ularga manzilli yordam ko'rsatish, shu bilan birga, jamoatchilik nazoratini shakllantirishda mahalla institutining roli ulkandir. Shuning uchun ham ushbu institut faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Xususan, ijtimoiy jihatdan, jamiyat hayotidagi muammolarni aniqlash va ularni izchillik bilan bartaraf etish imkoniyatini osonlashtiradi, iqtisodiy jihatdan aholi turmush farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish borasidagi chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishda ko'maklashadi. Siyosiy jihatdan esa barqarorlikni ta'minlovchi institut sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga asosan, O'zbekistonda ham fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish institutlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ko'plab normativlar qabul qilingan. Ushbu normativlar xalq va hukumat orasidagi munosabatlarni institusional jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda, deyish mumkin. Biroq, rasmiy normalarning har doim ham mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning barcha elementlarini to'laqonli qamrab ola olmaydi va institusional bo'shliq mavjud bo'ladi. H. T. Rahman va boshq. (2017) ham institutlarning rivojlanishi ko'pincha evolyusion xususiyatga ega ekanligi bois rasmiy normalarni yangilashga hamisha ehtiyoj mavjud ekanligini tasdiqlaydi [1]. Shunga asosan mahalla instituti va uning faoliyatini reglamentlovchi mavjud me'yoriy-huquqiy asoslarni tahlil qilish va mavjud institusional muammolarni bartaraf etish hamda mahalla institutlari faoliyatidagi mavjud qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur maqolaning maqsadi hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalla instituti va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati, uni rivojlantirish kabi masalalar yuzasidan ko'plab mahalliy iqtisodchilar, filosoflar, sosiolog va siyosatshunoslar hamda institusional iqtisodchilar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, B. Gafurov (2022) yirik tadbirkorlik sub'ektlarini mahallalarga biriktirish orqali aholi daromadlari hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratgan. Muallifning xulosasiga ko'ra hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mahallalarda aholi tadbirkorligini rivojlantirish zarur. Buning uchun eng maqbul usullaridan biri esa "etakchi tadbirkorlar" ning imkoniyatidan foydalanish hisoblanadi [2]. M. Inagamova (2022) tomonidan esa mahalla instituti faoliyatini rivojlantirish borasida qabul qilingan normativlar ijrosining natijaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Muallifning xulosasiga ko'ra, mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tizimli ravishda hal etish uchun mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va mahallalarda aholining tadbirkorlik ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur[3]. A. Teshaboev (2022) ham mahalla institutining jamiyat hayotidagi o'rni, uni faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada asosan mahalla raisini saylashning formal prosedurasiga e'tibor qaratilgan. Muallifning xulosasiga ko'ra mahalla institutining rivojlanishi tarixiy xususiyatga ega hamda mahalladagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda zaruriy institut hisoblanadi [4]. V. Alimasov (2023) mahalla institutini mavjud qonunchiliklarga ko'ra institusional muammolariga e'tibor qaratgan bo'lib, muallifga ko'ra O'zbekistonda mahalla instituti hududiy muammolarni hal etishga qodir bo'lgan institutga aylantirilmagan, hududdagi real muammolarga ta'sir eta olmaydi va yuqori boshqaruv instansiyalariga qaram bo'lgan institut hisoblanadi [5]. S.O. Rasulov (2023) esa fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi boshqaruvning samaradorligini baholash masalalariga e'tibor qaratgan. Muallif asosan ushbu tizimning samaradorligini baholashda uchta uslubiyatni taklif etgan. Birinchisi statistik tahlil usuli bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish nazarda tutilgan. Ikkinchi usul ekspert baholash usuli bo'lib, unga ko'ra ekspertlar tomonidan mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligi mezonlarini orqali baholashni o'z ichiga oladi. Uchinchi usul esa jamoatchilik baholash usuli bo'lib, u turli ijtimoiy so'rovnoma orqali jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi [6]. B. Berkinov (2024) esa mahalla hududida kambag'allikni qisqartirish masalalariga e'tibor qaratgan bo'lib, tadqiqotda "yashash minimumi", "iste'mol savatchasi" kabi mezonlar kambag'allikni ifodalovchi asosiy indikatorlari sifatida foydalanilgan. Muallifga ko'ra mahalla hududida kambag'allikni qisqartirishning eng zarur shartlardan biri sifatida kichik, o'rta va yirik hududlar atrofida agrosanoat klasterlari guruhlarini tashkil etish va ishsizlar hamda aholining ehtiyojmand qatlamini unga jalb etish zarur [7].

Shu bilan birga, mahalla faoliyatiga oid B. Berkinov (2024) ning yana bir tadqiqoti mahalla hududida aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi tahlili va prognoziga qaratilgan bo'lib, muallifning xulosasiga ko'ra so'nggi yillarda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi o'sgan. Shuningdek, 2023-yilda o'rta bitta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi prognozi minimum iste'mol va tabiiy rasional me'yorlarga mos keladi [8]. F.Abdullaxojaevich (2024) esa mahalla byudjeti daromadlari manbaini kengaytirish orqali mahalla faoyiyati samaradorligini oshirish masalalarini o'rgangan.

Muallifga ko'ra, mahalla byudjeti daromadlari oshishi va mahallalarning iqtisodiy rivojlanishi mahallalarga birlashtirilgan soliq inspektori faoliyatiga bog'liq [9].

O'rganilgan tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, mahalla institut faoliyatidagi ko'plab huquqiy-institusional masalalar xususan, mahalla raisining saylanishi va mahalla institutining ijro o'rgani sifatidagi cheklangan imkoniyatlari hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining samaradorligi borasida tahlillar amalga oshirilgan¹. Shuningdek, mahalladagi kambag'allik darajasi mezonlari, mahalla hududida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabi va imkoniyatlari hamda mahalla byudjeti daromadlarini kengaytirish masalalari tadqiq etilgan². Biroq, mahalla faoliyati borasidagi normativlardagi kamchiliklar, ulardagi o'zaro nomuvofiqliklar va bo'shliqlar o'rganilmagan. Shunga ko'ra, ushbu maqolada mavjud kamchiliklar ilmiy jihatdan to'ldirish maqsad qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi gipotezaning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, sabab-oqibat, qiyosiy tahlil, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tahlil etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasining rasmiy saytiga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilni dastlab 2013-2023 yillar oralig'ida mahalla instituti faoliyatini ta'minlovchi mavjud normativlarni ro'yxatidan boshlash maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1 (qarang: M.Inagamova 2022; A.Teshaboev 2022; S.O.Rasulov 2023; V.Alimasov 2023).

2 (qarang: B.Berkinov 2024; F.Abdullaxojaevich 2024).



1-jadval. Mahalla institutlari faoliyatini reglamentlovchi me'yotiy-huquqiy hujjatlar

№	Normativ nomi	Normativ qabul qilingan sana
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi	2023-yil, 1-may (yangi tahrir)
2.	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ-350-son Qonuni.	2013 yil, 22-aprel
3.	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida" gi O'RQ-499-son Qonuni.	2018-yil, 15-oktabr
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-353-sonli qarori.	2022-yil, 16-avgust
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-331-sonli qarori.	2022-yil, 25-iyul
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-209-son Farmoni.	2023-yil, 25-dekabr
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938 sonli Farmoni.	2020-yil, 19-fevral
8.	O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 117-son qarori.	2018-yil, 15-fevral
9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 367-son qarori.	2020-yil, 10-iyun

Manba: Lex.uz qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Konstitutsiya milliy qonunchilikning tayanch normativi hisoblanib, uning 127-moddasida barcha shaharchalar, qishloqlar va ovullarda o'z-o'zini boshqarish organlari hisoblanib, ularning raisi saylanishi, ushbu tuzilma fuqarolarning muammolarini qonunga mos ravishda hal etishga haqliligi hamda davlat o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashishi belgilangan. Bundan tashqari, ushbu tuzilma davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi qay'iyon belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining O'RQ-499-son Qonuni. Ushbu Qonun fuqarolar yig'ini raisi saylovining huquqiy prosedurasini o'z ichiga olgan bo'lib, 35 ta moddadan iborat. Qonunda asosan saylovning prinsiplari, shakli, uni tashkil etish va o'tkazish, raislik lavozimi uchun nomzodlar ko'rsatish tartibi, saylovni o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarni tuzish va ushbu komissiyaning vakolatlari, saylovni haqiqiy emas deb topish, takroriy ovoz berish va takroriy saylov hamda saylovni yakunlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining O'RQ-350-son Qonuni. Ushbu Qonun o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tayanch asosi bo'lib, 33 ta moddadan tashkil topgan. Ushbu qonun fuqarolar yig'ini faoliyatini tashkil etishni, tartibga solishni hamda ular faoliyatini tugatish kabilarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-353-sonli qarori. Ushbu qarorda mahallani ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etishni belgilangan. Shuningdek, ushbu jamg'armani shakllantiruvchi qo'shimcha manbalar va jamg'armadan moliyalashtiriladigan asosiy yo'nalishlar belgilab belgilab berilgan. Bundan tashqari, belgilangan muddatda mahalla hududini aniq chegaralarini belgilash, mahallaning yagona klassifikatorini ishlab chiqish kabi vazifalar ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-331-sonli qarori. Mazkur qaror mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilikni faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga mo'ljallangan hamda bu maqsadlar borasida bo'sh turgan davlat ob'ektlari hududida 150 kv/m dan yoki qishoq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarda yoki 0,1 gadan katta bo'lmagan mikromarkazlar tashkil etish, davlat mulki ob'ektlari va er uchastkalarini besh yilgacha ijaraga berish va ushbu mikromarkazlarda ish o'rinlari yaratish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-209-son Farmoni. Mazkur farmon, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tizimli ravishda hal etishning avtomat mexanizmini shakllantirish maqsadida, mahalla institutini mahalliy boshqaruvning muhim va ajralmas bir bo'lagiga aylantirishga qaratilgan bo'lib, unda bir-necha chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, O'zbekiston mahallalari uyushmasini tashkil etish va uning vazifasi sifatida mahallani xalq va davlat orasidagi "ko'pri" tuzilma sifatidagi aloqalarini mustahkamlash, mahallani jamoatchilik nazorati va boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, muammolarni samarali va izchillik bilan hal etilishida davlat tashkilotlarining mahallalardagi vakillarini faollashtirish, mahallalarning moliyaviy, moddiy-texnik imkoniyatlarini yaxshilash va ehtiyojmand oilalarga moddiy yordamni ko'rsatish, "mahalla etiligi"ni tashkil orqali mahallalardagi mavjud muammolarga huquqiy, ijtimoiy, moliyaviy-iqtisodiy hamda xotin-qizlar va yoshlar kesimida kompleks tarzda yondashish bilan ta'sirchan choralar mexanizmini ishlab chiqishni hamda "Mahalla byudjeti" tizimi amaliyotini jori etish kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5938 sonli Farmoni. Mazkur qaror aholining osoyishtaligini ta'minlash va ularning muammolari bilan ishlashni yangi darajaga ko'tarish, mahallani jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash kabilarni maqsad qiladi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini va qonuniy manfaatlarini himoyalash, jamiyatda sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaxshilash, xodimlarning mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz va tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 117-son qarori. Mazkur qaror mahalla institutini aholining ko'makdoshiga aylantirish, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalariga uslubiy-amaliy ko'maklashish, o'zaro bog'liq bo'lgan vazifalar ijrosini to'laqonli ta'minlash tizimini shakllantirish hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 367-son qarori. Ushbu qaror mahalla va oila institutlarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi, o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari faoliyatidagi muayyan muammo va kamchiliklarni aniqlash, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy muammolarini ilmiy-uslubiy jihatdan tadqiq etishni nazarda tutuvchi "mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etishni maqsad qiladi.

O'rganilgan normativlardan ko'rish mumkinki, mahalla instituti faoliyatini huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan tartibga solish hamda rivojlantirishni ko'zda tutadi. Biroq ushbu normativlar muayyan nomuvofiqliklar holi emas.

Birinchidan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-Farmoniga ko'ra "mahalla etiligi" faoliyatining asosiy vazifasi sifatida mahalla obodonligini ta'minlash, aholini muammolarini o'rganish, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga subsidiya va kreditlar berishda va o'z-o'zini band qilishda ko'maklashish, aholining kambag'al va ehtiyojman qatlamini aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish kabi qator vazifalari ijro o'rgani sifatida belgilab berilgan. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127 moddasiga ko'ra, mahalla instituti ijro organi tizimiga kirmasligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, obodonlashtirish tashkiloti mahalla tashkilotlariga formal jihatdan birlashtirilgan va mahallalarga bo'ysunmaydi.

Ikkinchidan. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 oktyabrda "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi PQ-353 sonli qarorda mahalla byudjetini shakllantiruvchi manbalar hamda ushbu mablag'larni sarflanish yo'nalishlari belgilab berilgan. Biroq, mahalla byudjetining mahallalararo taqsimlanishi bo'yicha aniq huquqiy proseduralar nazarda tutilmagan. Bu esa ushbu mablag'larni o'z manziliga to'g'ri etib bormasligiga yoki uni noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevralda "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"** Farmon hamda O'RQ-350-sonli Qonunda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Biroq, bugungi kunda ushbu institut faoliyati haliga qadar hokimiyat organlarining ta'siri ostida qolmoqda (V.Alimasov 2023).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada O'zbekistonda mahalla institutlari faoliyatidagi asosiy normativlar tahlil qilindi. Ulardagi muayyan nomutanosibliklar hamda amaliyot bilan nomuvofiqliklar ma'lum bo'ldi. Fikrimizcha, o'zini-o'zi boshqarish tizimi xodimlarining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida birinchidan, ularning vazifa va vakolatlarini tor va aniq doirada qaytadan ko'rib chiqish lozim. Shuningdek, o'zini o'zi boshqarish institutlari jamiyatning



real ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal eta oladigan, mustaqil va hokimiyat organlarining tasir va tayziqlaridan holi bo'lgan tashkilotga aylantirish lozim. O'ylaymizki, mana shu fundamental chora-tadbirlar mahalla institutini jamiyatning tayanch bo'g'iniga ayatlanishida dastlabki qadam bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahman, H. T., Ville, A. S. S., Song, A. M., Po, J. Y., Berthet, E., Brammer, J. R., ... & Hickey, G. M. (2017). A framework for analyzing institutional gaps in natural resource governance. *International Journal of the Commons*, 11(2), 823-853.
2. Gafurov, B. (2022). POSSIBILITIES OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS THROUGH CONNECTING "LEADING ENTREPRENEURS" TO MAHALLAS. <https://www.bulletennauki.ru>, 216.
3. Инагамова М.М. (2022). Янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияда қонун устуворлигини таъминлаш ва маҳалла институти фаолиятининг самарадорлигини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари (таҳлилий статистик маълумотлар асосида). *Academic research in educational sciences*, 3(10), 315-321.
4. Тешабоев А. (2022). Ўзбекистонда маҳалла институти фаолиятини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари. *Общество и инновации*, 3(7/S), 165-170.
5. Алимасов, В. (2023). Худудларни ижтимоий-маданий ривожлантириш: назария ва амалиёт. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(2), 190-196.
6. Otabek Rasulov (2023). O'zini-o'zi boshqarish organlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishni baholash masalalari. *qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8, 70-73.
7. Беркинов Б. (2024). Маҳалла ҳудудида камбағалликни бартараф этиш йўллари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(1), 310-317.
8. Беркинов, Б. (2024). Маҳалла ҳудудида аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили ва прогнози. *Economics and Innovative Technologies*, 12(2), 245-252.
9. Abdullaхоjaevich Fayziyev Farrux. (2024). Mahalla budjeti daromadlari manbaini kengaytirish va uning samaradorligini yanada oshirish masalalari. *World scientific research journal*, 26(3), 52-59.
10. *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [Матн] Расмий нашр. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2023. – 80 б.*
11. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 22 апрелдаги "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги ЎРҚ—350-сонли Қонуни. lex.uz/ru/docs/2156899
12. Ўзбекистон Республикасининг 2018-йил, 15-октябрдаги "Фуқаролар йиғини раиси сайлови тўғрисида" ги ЎРҚ-499-сон Қонуни. lex.uz/docs/3988421?otherlang=1
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил, 16-августдаги "Маҳалла институтининг жамият ҳаётидаги ролини мустаҳкамлаш ва молиявий имкониятини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-353-сонли қарори. lex.uz/docs/6416100
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил, 25-июлдаги "Маҳаллаларда саноат, ҳунармандчилик, касаначилик ва чорвачилик микромарказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-331-сонли қарори. lex.uz/docs/6129618
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил, 25-декабрдаги "Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўлин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида" ги ПФ-209-сон Фармони. lex.uz/docs/6705763
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил, 19-февралдаги "Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5938 сонли Фармони. lex.uz/docs/4740345
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил, 15-февралдаги "Маҳалла институтининг янада самарали фаолият юритишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 117-сон қарори. lex.uz/docs/3561667
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил, 10-июндаги "Ўзбекистон Республикаси маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳузуридаги "маҳалла ва оила" илмий-тадқиқот институти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида"ги 367-сон қарори. lex.uz/docs/4850317

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

